

VAQTNING QADRI

Yuldoshov Akmal

O'zmu talabasi

Annotatsiya: *Vaqt bizga hayot davom etayotganini eslatib turuvchi vositadir. Har bir inson hayoti esa uning tug'ilgan vaqtidan toki vafot etgunicha yashab o'tadigan vaqtidir. Eng yaxshi vaqt, hayotni foydali ishlar bilan o'tkazishdir. Aqlsizlikning eng yomon ko'rinishi vaqtni bekor o'tqazish.*

Kalit so'zlar: *Vaqtning qadri, vaqtni behuda o'tkazish, dangasalik, vaqtning sog'likka foydasi, vaqt va daromad, vaqt bu hayot.*

Ikki narsa borki, ko'pchilik uning qadriga yetmaydi. "Biri sog'lik, ikkinchisi esa bo'sh vaqt", deganlar Payg'ambarimiz Muhammad Allayhissalom: Vaqt bu dardimizga malham bo'ladigan bepul da'vodir. Vaqtning sog'likka nima aloqasi bor deb o'ylashingiz mumkin albatta. Misol uchun agar kimdir kasal bo'lib qolsayu o'z vaqtida davolanmasa vaqtni o'tkazib yuborsa, dardiga da'vo topa olmasligi va hattoki hayotdan ko'z yumishi ham mumkin. Aksincha da'volanish choralari o'z vaqtida ko'rganlar tez tuzalishlari va sihat salomatlikda uzoq umr ko'rishlari mumkin. Agar kimningdur boshiga musibat tushib tushkunlikka tushib qolsa ham "dardiga vaqt da'vo bo'ladi" deb ovutamiz. Kishi umrining hamma soatlarini, hattoki daqiqalari foydali va sog'likka muvofiq mashg'ulotlar bilan to'ldirishi kerak, toki qayg'u-alam bosh suqadigan bo'sh joy qolmasin.

Vaqt bu-daromad. Xalqimizda "Vaqtning ketdi-naqding ketdi" degan purhikmat gap bor. Darhaqiqat, Vaqtni pulga sotib olib bo'lmaydi yoki uni orqaga qaytarishning ham imkoni yo'q. Ba'zi insonlar qimmatbaho vaqtlarini behuda sarflaydilar, va bu bilan vaqtni to'g'ri sarflash orqali foyda qilishi mumkin bo'lgan daromaddan quruq qoladilar, ba'zi buyuk odamlar esa vaqtdan unumli foydalanadilar va har daqiqadan foyda ko'radilar. Bu qanday bo'lishi mumkin dersiz. Hech hisoblab ko'rganmisiz sizning bir soat vaqtingiz qanchaga tushishini, deylik ba'zilar bir kunda 8 soat ishlaydi va kuniga 200 000 so'm pul topadi, demak ular soatiga 25ming topayapti. Yoki aksincha umuman ishlamaydiganlar shuncha miqdordagi daromaddan mosuvo qolishmoqda. Bundan kelib chiqadiki har birimiz vaqtning qanchalik qadrli ekanini va uni to'g'ri sarflamasak qanchalik zarar ko'rishimiz mumkin ekanligini tushunib olishimiz kerak.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, vaqt nafaqat sog'lik balki boylik topishda ham eng muhim hisoblanadi. Biz sarflagan pulimizni topishimiz mumkin, ammo yo'qotgan vaqtimizni qaytarib ololmaymiz. Demak, bu vaqtni puldan ko'ra

qimmatliroq ekanligini va biz vaqtdan maksimal darajada foydalanishimiz kerak ekanligini anglatadi. Har nafasimiz, har kunimiz uchun Allohga shukur qilib, uni qadriga yetaylik. Chunki bu vaqt barchamiz uchun omonatdir.

Alloh taollo inson zotini barcha mavjudotlardan aqlli, tafakkur bilan va mukammal etib yaratdi. Inson hayotiga zarur bo'lgan barcha narsalarni, shu jumladan, uning umrini va vaqtini belgilab bergan. Inson umri bekorga berilmagan, uni behuda ishlar, bekorchilik, dangasalik va tanballik bilan o'tkazmasdan, balki foydali ishlar, elu-yurtga manfaat keltiradigan buyuk ishlarni amalga oshirishi lozim. Inson umri cheklangan. U ma'lum yillar, ma'lum oylar, kunlar, soatlar, daqiqalardan iborat. Uni qanday o'tkazish esa, faqat o'zimizga bog'liq. Undagi g'alabalarimizdan ruhlanamiz, omadsizliklarimizdan xulosa qilamiz va yana yutuqlar sari intilamiz. Shunday ekan, o'tayotgan har bir onimizning qadriga yetishimiz lozim, bo'lmasa vaqt hamisha tez fursatda, hamda behudaga o'tib qolganini payqamay qolamiz.

O'tayotgan har daqiqa-yu soniya, soat, kun, inson umrining o'lchovidir. Vaqt shunday narsaki uni ertangi kunga g'amlab qoyib bo'lmaydi. Alisher Navoiy bobomiz aytganidek "Umr gulshanining baxori" va "xayot shabistonining naxori" kechirayotgan yoshlik yillari zavq-shavqlari jushqinligidan kishi umr bahori va uning munavvar tongi juda tez otib ketganini payqamay ham qoladi.

Shuninig uchun, har birimiz ozimizga berilgan vaqtdan unumli foydalanishimiz, bilim olish, hunar o'rganish, yaxshi ishlarga sarflash, halol kasb-kor kilish, ilm olish, farzandlarini kelajakda elu- yurtiga xizmat qiladigan, jamiyatga manfaat keltiradigan olim, fozil, hunarmand, tadbirkor, solih kishilar bolib voyaga yetishlarini ta'minlashga harakat qilish lozim. Ulug' ajdodlarimiz, buyuk olimlarimiz vaqtlariga juda qizganchiq bo'lishgan.

Vaqt bu-daromad. Xalqimizda "Vaqting ketdi-naqding ketdi" degan hikmat bor. Darhaqiqat, Vaqtni pulga sotib olib bo'lmaydi yoki uni orqaga qaytarishning ham imkoni yo'q. Ba'zi insonlar qimmatbaho vaqtlarini behuda sarflaydilar ba'zi odamlar esa vaqtdan unumli foydalanadilar va har daqiqadan foyda ko'radilar.

Xulosa qilamizki, yuqorida aytilganidek vaqt bu sog'lik, boylik hamda bebaho nemat ekan. Biz sarflagan pulimizni topishimiz mumkin, ammo yo'qotgan vaqtimizni qaytarib ololmaymiz. Har nafasimiz, har kunimiz uchun Allohga shukur qilib, uni qadriga yetaylik. Chunki bu vaqt barchamiz uchun omonatdir.

Insonlar vaqt haqida turli hil oyga egalar. Kingadir vaqt etmaydi, kimdir esa vaqtni "o'ldirishni" istaydi. Insonlar bekorchilikdan qiynalishlari mumkin, kun tezroq o'tishi uchun vaqtni har xil bemani narsalarga sarflashadi. Boshqalarga vaqt etmaydi. Ular doim shoshilishadi, juda band bo'lishadi va doim ulgurushmaydi.

Nima uchun? Nimaga kimdadir vaqt ko'p, boshqalarda esa etmaydi? Balki vaqtni to'g'ri ishlatishni bilishmaydi?

Oltin maqolda shunday deyilgan: "Inson nimani eksa, o'shani oradi". Agar biz yaxshilik qilsak, shuning evaziga kelajakda mukofot olishimiz mumkin. Shunday ekan vaqtni yaxshilik uchun ishlataylik. O'z vaqtingizni nafaqat hech kimga zarar etkazmasdan yashash kerak, balki yanada ko'proq yaxshilik qilish kerakdir.

Vaqtni oilaga, ish-o'qishga, do'stlarga va hordiqga taqsimlay olish eng muhim vazifalardan biridir. Shu narsalarga vaqt ajratish juda muhim! Yaqinlaringiz va do'stlaringiz bilan har bir vaqtni qadrlash kerak. Ularning yonida bolish, ularni sevish va ularga ko'proq e'tibor ajratish lozim keyin shunday imkoniyat bo'lmasligi ham mumkin.

Xa albatta, biz ishlashimiz ham kerak, chunki yashashimiz uchun pul kerak. Ammo ish ham chegaralangan bo'lishi kerak. Rejalashtirilmagan ish vaqti bo'lsa, ularga o'z vaqtida rejalashtirish qiyin bo'ladi.

Bizda qancha vaqt qolganini bilmaymiz, shuning uchun Xudo bergan vaqtni donolik bilan sarflaylik!!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.<http://ndki.uz>
- 2.<https://www.ireport.uz>
- 3.<https://fayllar.org> .